

**RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI: KOMPYUTER  
TEXNOLOGIYALARINING FUQAROLAR HUQUQLARINI TA’MINLASHDAGI  
ROLI**

*Namangan davlat Universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich*

*YU-HU-24-guruh talabasi*

**Jo’rayeva Hulkaroy Tavakkal qizi**

[jorayevhulkaroy@gmail.com](mailto:jorayevhulkaroy@gmail.com)

**Ilmiy raxbari: Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna**

*Namangan davlat Universiteti o’qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda davlat organlari faoliyatini amalga oshirishda kompyuter texnologiyalarining o’rni, raqamli davlat boshqaruvi, fuqarolar o’z huquqlarini axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishlari haqida so’z yuritiladi. Shuningdek davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish orqali fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritiladi. Maqolada kompyuter texnologiyalarning davlat boshqaruvida shaffoflikni taminlash, ochiqlik va samaradorlik, korrupsiyani oldini olish, fuqarolar va davlat organlari o’rtasidagi samarali aloqalarni amalga oshirish hamda raqamli boshqaruv tizimini takomilashtirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning samarali usullari va imkoniyatlari ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Axborot texnologiyalari, davlat boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, davlat xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, fuqarolar huquqlari, huquqiy kafolatlar, elektron hukumatda ochiqlik, shaffoflik, interaktiv davlat xizmatlari.

**Abstract:** This article discusses the role of computer technologies in the implementation of the activities of state bodies, digital state management, and citizens' exercise of their rights through information technologies. It also covers the issues of digitization of state services, development of the e-government system, and expanding citizens' access to state services through the use of information and communication technologies. The article reveals effective methods and opportunities for the use of computer technologies in state administration to ensure transparency, openness and efficiency, prevent corruption, implement effective communication between citizens and state bodies, and implement the constitutional rights and freedoms of citizens by improving the digital management system.

**Keywords:** Information technologies, public administration, digital technologies, e-government, public services, information and communication technologies, citizens' rights, legal guarantees, openness, transparency in e-government, interactive public services.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль компьютерных технологий в осуществлении деятельности государственных органов, цифровом государственном управлении и реализации гражданами своих прав посредством информационных технологий. Также освещаются вопросы цифровизации государственных услуг, развития системы электронного правительства и расширения доступа граждан к государственным услугам за счет использования информационно-коммуникационных технологий. В статье раскрываются эффективные методы и возможности использования компьютерных технологий в государственном управлении для обеспечения прозрачности, открытости и эффективности, предотвращения коррупции, обеспечения эффективной коммуникации между гражданами и государственными органами, а также реализации конституционных прав и свобод граждан путем совершенствования системы цифрового управления.

**Ключевые слова:** информационные технологии, государственное управление, цифровые технологии, электронное правительство, государственные услуги, информационно-коммуникационные технологии, права граждан, правовые гарантии, открытость, прозрачность в электронном правительстве, интерактивные государственные услуги.

## KIRISH

Boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va natijadorlikni oshirishni maqsad qilgan xar bir davlat eng avvalo boshqaruv faoliyatini zamonaviy taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borishi muhim sanaladi. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab raqamlashtirish va yuqori texnologiyalardan foydalanish urfga aylangan. Bunga sabab IT industriyasi ko'lamini jihatidan keng va mazmunan boyib borishidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, elektron hukumat samaradorligini oshirish, davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash maqsadida ko'plab qonun, qaror, farman, davlat dasturlari qabul qilindi.

Ushbu huquqiy hujjatlar davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy kompyuter texnologiyalarni joriy etish, axborot almashinuvi va fuqarolarga xizmat ko'rsatishda qulaylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek

raqamli davlat boshqaruvi-bu davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, davlat xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish hamda davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni yanada ochiq va shaffof qilishga qaratilgan tizimdir.

Xususan 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida" qonun<sup>1</sup> qabul qilinib, Qonun davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish va fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirishni tartibga soladi. Qonunga ko'ra **Elektron hukumat**- davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatni,

<sup>1</sup> Elektron hukumat to'g'risidagi qonun. 2015-yil.9-dekabr.

5-Aprel, 2026-yil

shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora tadbirlar va texnik vositalar tizimi etib belgilab qo'yilgan. Bunday tizim fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishni yengillashtiradi, davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanish imkonini yaratadi hamda korrupsiya va byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon nafaqat davlat boshqaruvi faoliyati, balki kelgusi hayotini ham belgilab berishda muhim ro'l o'ynaydi. Izchil islohotlar yo'lidan boradigan har bir mamlakat avval boshqaruv faoliyatida samaradorlikni ta'minlashi kerak.

### ASOSIY QISM

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida davlat boshqaruvi tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish tizimining rivojlanishi fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Elektron davlat xizmatlari portallarining joriy etilishi natijasida fuqarolar ko'plab xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek elektron hujjatlarning huquqiy kuchini ta'minlash maqsadida 2022-yil 26-iyulda “Elektron raqamli imzo to'g'risida” Qonun qabul qilindi<sup>2</sup>.

Ushbu qonuning maqsadi elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek ushbu qonunga ko'ra **elektron raqamli imzo**-elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo hisoblanadi.

So'nggi yillarda boshqaruv tizimi va ko'plab sohalarni raqamli transformatsiya qilish yo'lidan borayotgan O'zbekiston global raqamlashtirish jarayonining uzviy bir qismiga aylanib bormoqda. Bu borada “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'likni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarning maxalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Misol uchun davlat boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish turlari kengayib undan foydalanish samaradorligi oshib bormoqda. Boshqaruv tizimini raqamlashtirish davlat va xalqni bir biriga yaqinlashtirdi. Umuman olganda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish va zamonaviy qiyofaga ega bo'lishda sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati bugungi kunda dolzarbdir. Shu jihatdan olib qaraganda innovatsion taraqqiyotning bir yo'nalishi bo'lgan sun'iy intellektning huquqiy

<sup>2</sup> Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonun. 2022-yil.26-iyul.

chegaralarini aniqlash va javobgarlik masalalarini belgilash bu zamonaviy yuristprudensiya sohasi oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ham quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o‘tkazish, shu jumladan ko‘rsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish;

elektron hukumat axborot tizimlarini ishlab chiqishda yagona texnologik yondashuvni ta‘minlash, shu jumladan ochiq kodli dasturiy ta‘minotdan foydalangan holda davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish;

iste‘molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma‘lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, “ochiq ma‘lumotlar”ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish;

davlat ma‘lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma‘lumotlarni to‘plash va raqamlashtirish uchun kerak bo‘lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish, shu jumladan ma‘muriy tartibotlarni avtomatlashtirish orqali talab qilingan ma‘lumotlar va hujjatlarning sonini qisqartirish;

litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bilan bog‘liq barcha tartib-taomillarni optimallashtirish va ularni real vaqt rejimida ishlovchi elektron shaklga o‘tkazish;

elektron hukumat tizimi doirasida elektron davlat xizmatlaridan aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun shaxsni masofadan tasdiqlashning qo‘shimcha shakl va usullarini joriy etilishini nazarda tutuvchi raqamli identifikatsiyalashni rivojlantirish;

aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron hukumat tizimlari orqali yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan axborot yetkazish va xabardor qilish imkoniyatini;

aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari va tashkilotlariga murojaatlarini ko‘rib chiqish holatini onlayn rejimida kuzatish samarali tizimlarini (“treking”) joriy etish;

davlat organlarining faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish;

aholining takliflari va mulohazalarini, shuningdek, aholi fikri asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ulushini oshirishni hisobga olgan holda qonun hujjatlari loyihalarini onlayn tarzda muhokama qilishda fuqarolar va tadbirkorlar ishtirok etishi mexanizmini yanada takomillashtirish;

davlat organlari va boshqa subyektlarning barcha xizmatlari uchun bojlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni onlayn to‘lash va navbatlarni avtomatlashtirish axborot tizimlari komplekslarini yaratish;

arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish va ochiq ma‘lumotlarni shakllantirish doirasida zarur bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarining ma‘lumotlar bazalarida ma‘lumotlarni shakllantirish;

idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini, elektron hukumat xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat organlarining axborot resurslarini, markaziy ma’lumotlar bazalarini xavfsiz saqlash va ularning integratsiyasini ta’minlaydigan, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining turli axborot tizimlaridagi turli tarqoq hamda takroriy ma’lumotlarni keyinchalik tahliliy qayta ishlash imkoniyatini yaratadigan Elektron hukumatning ma’lumotlarini qayta ishlash markazini yaratish;

jamiyat hayotining barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha raqamli infratuzilmani shakllantirishni va elektron hukumat axborot tizimlarini keng joriy qilishni yanada jadallashtirish:

sog‘liqni saqlash, bunda tibbiyot sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va elektron xizmatlarni taqdim etishni hisobga olgan holda milliy integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etish;

ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish;

mehnat faoliyati va aholi ijtimoiy ta’minotini tartibga solish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

aholiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali qurilish sohasida shaffoflik va sifatni oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

Ushbu maqsadlar orqali davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani to‘liq raqamlashtirish, fuqarolar uchun qulay va tezkror davlat xizmatlarini yaratish hamda mamlakatni raqamli iqtisodiyotga o‘tkazishdab iborat.<sup>3</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va keng qo‘llash bu davlat va jamiyat hayoti sohalarini modernizatsiya qilishga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek elektron orqali murojatlar yuborish, ma’lumotlarga erkin kirish va xizmatlardan masofadan foydalanish orqali fuqarolar davlat boshqaruvida faol ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari, axborot xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotsalarni himoya qilish hamda raqamli savodxonlikni oshirish kabi omillar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, raqamli davlat boshqaruvini izchil rivojlantirish fuqarolarning fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini to‘liq ta’minlash, ularning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek raqamlashtirish jarayonlarini suniiy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarni davlat boshqaruvi faoliyatiga realizatsiya qilish va ularning yuridik masalalariga oydinlik kiritish muhim masala

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni.

5-Aprel, 2026-yil

hisoblanadi. Bundan tashqari so‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi raqamlashtirish borasida qilinayotgan ishlar barqaror davom etmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Elektron hukumat to‘g‘risidagi qonun. 2015-yil.9-dekabr.

2. Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qonun. 2022-yil.26-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 01.05.2018 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi To‘g‘risidagi Nizomni Tasdiqlash Haqida.

Global  
Science  
Publication